CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	1148
Xamidov Anis Choriyeovich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	1175
Jononmirzayeva Dilafroz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	



KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOYA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. DJabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOYIY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ.....	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	



ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILİYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabel o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0.....	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Dilfuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	



ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH.....	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiquodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	



SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutulibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVAYLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyevich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH.....	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIY-OVQAT BOZORINING INSTITUTIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SURATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	



MAMLAKATNING HUDUDIIY IQTISODIIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELII	1644
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH.....	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIYAVIIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhammadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	



MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)

Ibodova Dilsora Ibodovna

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: guzelka7755@gmail.com

ORCID: 0009-0009-7224-6724

Annotatsiya. Maqolada mamlakatning ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida brend-marketing hamda sayohatning ta'siri ilmiy asosda tahlil etilgan. Unda brend-marketingning mazmuni va mohiyati, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar keng ko'lamda o'rganilgan. Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining Dubai shahri misolida brend-marketingning strategik yondashuvlari, sayohat sohasini rivojlantirish mexanizmlari hamda mamlakatning jozibadorligini oshirishga qaratilgan tajribaviy qarashlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari brend-marketingning hududlar raqobatbardoshligini oshirishdagi amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sayohat, brend-marketing, hudud, mintaq, shahar, obro' (imidj), hududiy brend-marketing.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the impact of brand marketing and tourism on the socio-political and economic development of a country. It examines the concept and essence of brand marketing, as well as the key factors that influence its formation and effectiveness. Using the case of Dubai (United Arab Emirates), the study highlights strategic brand-marketing approaches, mechanisms for tourism development, and measures aimed at enhancing national and regional attractiveness. The findings demonstrate the practical importance of brand marketing in strengthening the competitiveness of territories.

Key words: tourism, brand marketing, territory, region, city, image, territorial brand marketing.


Аннотация. В статье проведён научный анализ влияния бренд-маркетинга и туризма на социально-политическое и экономическое развитие страны. Рассмотрены сущность и содержание бренд-маркетинга, а также факторы, влияющие на его формирование и эффективность. На примере города Дубай (ОАЭ) представлены стратегические подходы к бренд-маркетингу, механизмы развития туристической сферы и меры по повышению имиджевой привлекательности территории. Полученные выводы подтверждают значимость бренд-маркетинга в укреплении конкурентоспособности регионов.

Ключевые слова: туризм, бренд-маркетинг, территория, регион, город, имидж, территориальный бренд-маркетинг.

KIRISH

Jahon mamlakatlari va mintaqalarida aholining turmush darajasini yaxshilash, farovonligini oshirish va rivojlantirish masalalari doimiy ravishda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu bois, ko'plab davlatlarda mintaqalarning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishida yangicha yondashuvlarni joriy etish, samarali boshqaruv uslublarini qo'llash, barqaror moliyaviy manbalarni jalb etish hamda hududning sayyohlik jozibadorligini belgilaydigan o'ziga xos brend-marketing strategiyasini ishlab chiqish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2016–2024-yillar oralig'ida dunyo bo'yicha xalqaro sayyohlar soni 1 247,8 milliondan 1 475 millionga oshib, 118,2 foizni tashkil etgan. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, 2025–yil yakuni bilan xalqaro sayyohlar soni 1 548 millionga yetishi, ya'ni 124,1 foizga o'sishi kutilmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2016-2025 yillarda dunyoda sayohat dinamikasi, mln.kishi [1]

Shuningdek, 2025–yilda xalqaro sayyohat eksporti (tushum va xarajatlar hajmi) 2,2 trillion AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu prognoz o'z navbatida, yalpi ichki mahsulot tarkibida sayohat ulushining 24 foizga oshishini anglatadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023–yil 29–mart kuni mamlakatimizning sayyohat salohiyatini oshirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sayohatni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar belgilab berildi. Jumladan, marketing va reklama orqali sayyohlarni jalb etish maqsadida 100 milliard so'm mablag' ajratilishi ta'kidlandi. Shuningdek, "O'zbekiston tashrif qog'ozi"ni ishlab chiqish, milliy sayohat brendini yangilash, xalqaro telekanallar hamda Internet platformalarida O'zbekiston haqida reklama roliklari sonini ko'paytirish zarurligi qayd etildi [2].

Hozirgi kunda O'zbekistonning dunyoga keng ochilgani natijasida xorijiy sayyohlar soni o'tgan yilga nisbatan (2024–yilning mos davri bilan solishtirganda) 10 million kishidan, sayohat xizmatlari eksporti esa 3 milliard AQSh dollaridan oshganligi kuzatiladi [3].

Shu nuqtai nazardan, mintaqalarning o'sish nuqtalari va rivojlanishga turtki beruvchi ixtisoslashuv yo'nalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lgan sayohat sohasida hududning iqlim sharoitlari uyg'unligi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, milliy urf–odat va an'analar, mehmondo'stlik kabi omillarning o'ziga xosligi katta ahamiyatga ega [4]. Bunda iste'molchilar nafaqat mahsulot (tovar yoki xizmat)larga, balki mintaqaviy, hududiy va mahalliy sayyohat brendlariga ham e'tibor qaratadi.

"Iqtisodiy atamalar izohli lug'ati"da qayd etilishicha, marketing (ingliz tilidan marketing — bozorni ilgari surish, bozor faolligi) — tovar va xizmatlarning sotilishini rag'batlantirish, ayirboshlash jarayonini rivojlantirish va jadallashtirish, ehtiyojlarni to'laroq qondirish hamda yuqori daromad olish maqsadida amalga oshiriladigan bozor faoliyatidir [5].

Brending (lotincha brand — brend, savdo belgisi) esa marketing kommunikatsiyalari tizimi doirasida firma uslubini, uning asosiy elementlarini ishlab chiqish hamda korxonani raqobatchilardan ajratib turuvchi o'ziga xos imidjni shakllantirish jarayonidir [5].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar jozibadorligini oshirish, marketing strategiyasining tarkibiy qismi sifatida brend va branding vositalarini shakllantirish, baholash, qo'llash hamda ularni ilmiy asoslash jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mintaqa brendini yaratishning nazariy va amaliy jihatlar ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, xalqaro marketing yo'nalishida T. Levitt tomonidan ilgari surilgan moslashuv va standartlashtirish nazariyalari [6], hududiy marketing konsepsiyasida esa F. Kotler, K. Asplund, D. Haider va I. Rein tomonidan hududlarning (shaharlar, mintaqalar va mamlakatlar) iste'molchilarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan maxsus tovar sifatida shakllanib borayotgani ta'kidlangan [7]. T. Ataeva esa hudud marketingi yangi atama sifatida milliy branding tushunchasini qamrab olishini, bunda hududning aholisi, imiji, jozibadorligi va infratuzilmasi asosiy strategik yo'nalishlar sifatida belgilanishini qayd etadi [8].



Shuningdek, G. Hofstede va S. Schwartz madaniy brend tamoyillarini [9], L. Chernatony brendlarni rivojlantirish modellarini [10], S. Anholt esa sayohat, eksport, investisiya, madaniyat, demografik ko'rsatkichlar va xalqaro migrasiya kabi yo'nalishlar bo'yicha milliy brendni yaratish va baholashning tizimli modelini taklif etadi [11]. Ushbu tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, sayohat brend-marketingi bo'yicha yaxlit ilmiy va amaliy yondashuvlar hanuzgacha ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Bizningcha, hududiy brend-marketing — bu g'oyalar, ramzlar, qadriyatlar va tasvirlarda tizimli ifodalangan, hududning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi noyob birlikdir. U vizual yoki virtual shaklda ifodalanadigan, iste'molchilarda hududga nisbatan ijobiy taassurot uyg'otuvchi "tashrif qog'ozi" sifatida xizmat qiladi. Sayohat brend-marketingi esa hududning tabiiy, madaniy va tarixiy merosi, diqqatga sazovor joylari, sayyohlar oqimini jalb qiluvchi yirik tadbirlar, hunarmandchilik mahsulotlari va xizmatlar majmuasi bilan belgilanadi.

Har qanday hududda sayohatni rivojlantirish uchun "sayohlik imkoniyatlari brendi"ni yaratish mumkin bo'lib, hududiy brend-marketing strategiyasining muvaffaqiyati uning barqaror va jozibali qiyofasini shakllantirish, iste'molchilarda hududning o'ziga xosligi haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, sayyohlar oqimini jalb etish, investisiya jozibadorligini kuchaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish, xalqaro maydonda ishtirokni faollashtirish va milliy obro'ni yuksaltirish bilan bevosita bog'liqdir.

Mamlakatda sayyohat hududlarini aniqlash va boshqarish jarayoni bir qator tamoyillarga tayanishi zarur. Bunda hududning maydoni va ahamiyati, taklif etiladigan mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar)ning turi, integratsiya jarayonlari (tarixiy, plyaj, chang'i, tadbirkorlik, sport yo'nalishlari)ning mavjudligi yoki rivojlantirish imkoniyatlari, davlat va tadbirkorlik uyushmalarining faoliyati, sayyohlik agentliklari hamda mehmonxonalar infratuzilmasining yetariligi, hududning mavjud sayyohlik salohiyati va xizmat ko'rsatish hajmi kabi omillar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, qulay infratuzilma va logistika zanjirlarining samaradorligi ham hududning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardandir.

Hududning sayohat brend-marketingiga e'tibor qaratish uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor tarmoqlaridan biriga aylantiradi hamda aholining turmush farovonligi va daromadlarini oshirishga xizmat qiladigan strategik yo'nalishni belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda brend-marketingning sayohatni rivojlantirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan kompleks o'rganildi. Avvalo, mavzuga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilinib, brend-marketing, hududiy jozibadorlik, milliy brend va hudud imidji kabi asosiy tushunchalarning mazmuni ilmiy manbalar asosida aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida solishtirish, mantiqiy mushohada, kontent-tahlil, tarixiy-tahliliy yondashuv hamda induktiv-deduktiv metodlardan foydalanilib, mavjud nazariyalar amaliy tajribalar bilan uyg'un holda baholandi.

Shuningdek, BAAning Dubay shahri misolida sayohat brend-marketingi strategiyasiga oid ochiq statistik ma'lumotlar, rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar nashrlari va ekspertlarning ilmiy qarashlari tahlil etildi. Hududning brend sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, sayyohlik oqimi dinamikasi, infratuzilma salohiyati va marketing tashabbuslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda amaliy misollar asosida tahliliy yondashuv qo'llandi. Natijada, brend-marketingning hududlar raqobatbardoshligini oshirish va sayohat salohiyatini mustahkamlashdagi strategik ahamiyati ilmiy asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Maqolada muallifning Birlashgan Arab Amirliklari, xususan Dubay shahrida sayohatni rivojlantirish hamda mamlakatning jozibadorligini oshirish borasidagi e'tiborga molik ilmiy qarashlari yoritilgan. Bugungi kunda Dubay shahri sayyohat, ko'chmas mulk, mehmonxona xo'jaligi va ta'lim markazlari kabi yo'nalishlarda xalqaro bozorning yuqori pog'onalariga ko'tarilmoqda. Shahar turistlar va investorlar uchun raqobatchilarning mavjud yutuqlarini takrorlamasdan, aksincha innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishi bilan ajralib turadi. Dubayning brend-marketing imidji va jozibadorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan siyosati jahon bozoridagi kuchli raqobat sharoitida o'z mavqeini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda [12].

Shaharda amalga oshirilgan har bir loyiha brend-marketingning strategik yondashuviga asoslangan bo'lib, global sahnada o'ziga xoslik va takrorlanmaslikning yorqin namunasi sifatida e'tirof etilgan. Ularning muvaffaqiyatli yakunlanishi Dubayning brend-marketing siyosati izchil va samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Ushbu tahlil Dubay shahrining brend-marketing strategiyasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hamda global miqyosdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilganini tasdiqlaydi [12].

Xususan, strategiya doirasida amalga oshirilgan "cho'ldagi chang'i kurorti", "Dubay qirg'og'idagi hashamatli yetti yulduzli mehmonxona", "dunyodagi eng katta sun'iy orol", "eng baland inshootlar", turli dam olish maskanlari va boshqa takrorlanmas loyihalar shaharning jahon miqyosidagi brendini shakllantirishda muhim o'rin tutadi



[12]. 2016–2024-yillar davomida Dubayga tashrif buyurgan sayyohlar soni 125,5 foizga oshgan bo'lsa, 2025–yil yakuni bilan ularning soni 25 million kishiga yetishi yoki 167,7 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda [1] (2-rasm).



2-rasm. 2016-2025 yillarda Dubay shahrining sayohat dinamikasi, mln.kishi [1]

Dubay shahrida sayohat yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan brend-marketing strategiyasi hududiy sayyohat mahsulotlari — tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalarining, jumladan mehmonxonalar va sayyohlik tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshirish, hududga yangi iste'molchilarni jalb qilish hamda mahalliy aholida "xizmat ko'rsatish mentaliteti"ni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Ushbu strategiya shahardagi sayyohlar sonining barqaror o'sishini samarali boshqarish, uni tartibga solish siyosatini takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek marketing tashabbuslari va investisiya oqimini kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Strategiyaning asosiy maqsadi Dubayni xalqaro miqyosda dam olish, ishbilarmonlik va xizmat safarlari uchun etakchi manzil sifatida namoyish etishdan iborat bo'lib, buning uchun Dubay shahri hamda xorijdagi manfaatdor tomonlar — davlat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlarining jamoaviy imkoniyatlaridan foydalaniladi. Xususan, sayyohlar oqimi ulushini mavjud va yuqori salohiyatli bozorlar doirasida saqlab qolish, shuningdek Dubai Corporation of Tourism & Commerce Marketing faoliyati orqali takroriy tashriflar sonini ko'paytirish strategiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilangan [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, yuqorida keltirilgan ilmiy natijalar mamlakatning brend-marketingini sayohatni rivojlantirish omili sifatida kuchaytirishga, ichki va tashqi bozorlardagi mavqei mustahkamlashga hamda yangi iqtisodiy sharoitda yangi bozor segmentlariga kirishda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladigan muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon, avvalo, mahalliy olimlarning hudud brend-marketingi tushunchasini chuqur tadqiq etishga faol jalb qilinishi, hudud brendini shakllantirish bo'yicha konseptual yondashuvlarning ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi orqali ta'minlanadi.

Shuningdek, mintaqani xavfsiz va qulay muhitga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, hududning jozibadorligini oshirish asosida raqobatbardoshlikni ta'minlash, sayyohlarni jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, mamlakatning brend-marketingga strategik yondashuvi sayohatni rivojlantirish jarayonini ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishi, uning xalqaro maydondagi obro' va nufuzini oshirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ООН по путешествовать. <https://www.untourism.int/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Mamlakatimiz sayohat salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi. 2023–yil. Elektron manbaa: <https://president.uz/uz/lists/view/6095>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston" bog'ida Mustaqillik kuni munosabati bilan nutqi. 2025–yil. Elektron manbaa: <https://president.uz/uz/lists/view/8441>



4. Ibodova D., Ibodova D. Hududlarni inklyuziv rivojlantirish (Qashqadaryo viloyati misolida). Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, ilmiy elektron jurnal, V son. 2025–yil, 769–777–betlar.
5. Norqulov I., Maxmudov O. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'ati. Toshkent: SAHHOF, 2022. 424 b.
6. Levitt T. The Marketing Imagination. London: Free Press, 1983. 238 p.
7. Демьяненко А. Н. Маркетинг мест, или уроки стратегического маркетингового планирования городского и регионального развития. Пространственная экономика, Москва, 2006, №4, С. 159–168.
8. Атаева Т. Маркетинг территорий как инструмент социально-экономического развития региона. Теория и практика общественного развития, Москва, 2014, №16, 10–108-стр.
9. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. L.: Sage, 2001; Schwartz S. H. A theory of cultural value orientations: Explication and applications. Comparative Sociology, 2006, 5(2–3): 137–182.
10. Чернатони Л. Брендинг. Как создать мощный бренд. Москва: Юнити-Дана, 2015. 559 с.
11. Anholt S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. NY: Palgrave Macmillan, 2003. 134 p.
12. Lee H. Dubai's brand assessment: Success and failure in brand management. Part 1, 2009, №5, 234–246. <https://doi.org/10.1057/pb.2009.14>
13. https://studwood.net/1027526/turizm/strategiya_razvitiya_turizma_obedinennyh_arabskih_emiratah



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>